

ZAMONAVIY HARBIY TA'LIMDA SOFT KOMPETENSIYALARNING MUHIMLIGI

Soxiboyev Zoyirjon Erkinovich

Chirchiq OTQMBYU Taktika kafedrasida katta o'qituvchisi, dotsent, podpolkovnik

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy harbiy ta'lim muassasalarida harbiy kadrlarni o'qitish tizimining yangicha zamonaviy ko'rinishida "Soft" (yumshoq) kompetensiyalarni muhimligi, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ahamiyatli tomoni, shuningdek bo'lajak ofitserlarni tayyorlashda ularning o'rni va roli va asosiy tamoyillari yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: kompetensiya, yumshoq ko'nikma, innovatsion yondashuv, harbiy-pedagogik ta'lim, bo'lajak yosh ofitser, "Soft Skills", muloqot, harbiy jamoa.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение «мягких» компетенций в новой современной адаптации системы подготовки военнослужащих в высших военных учебных заведениях, их характеристики, значение, а также их место и роль, основные принципы в подготовке будущих офицеров.

Ключевые слова: компетентность, "Soft Skills", инновационный подход, военно-педагогическое образование, будущих молодых офицеров, общение, военный коллектив.

Annotation. This article the importance of "Soft Skills" competencies in the new modern design of the training system of military personnel in higher military educational institutions, their specific characteristics, significance, as well as their place and role in the training of future officers and basic principles are explained.

Keywords. Competence, "Soft Skills", innovative approach, military-pedagogical education, future young officer, society, military collective.

KIRISH

Jahonda harbiy ta'lim-tarbiya jarayonini zamon talablari asosida rivojlantirish, jumladan oliy harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak yosh ofitserlarda ularning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olib, aynan ta'lim va tarbiya jarayonida kursantlarning harbiy va fuqarolik fanlarni o'zlashtirishi davomida "Soft Skills" yumshoq ko'nikmalarini rivojlantirish, bilim, malaka va ko'nikmalarini kamol toptirish zarurati tan olinmoqda.

Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish jarayonida bo'lajak mutaxassislarining yuksak yetakchilik boshqaruvchanlik darajasini yanada o'stirish, harbiy-kasbiy

kompetentligini, axborot-kommunikativ va texnik layoqatini rivojlantirishda shuningdek “Soft Skills” yumshoq ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasiga Yevropa davlatlari, AQSH va Rossiya kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlarda alohida e‘tibor qaratilmoqda. Oliy harbiy ta‘lim muassasalarida harbiy-pedagogik ta‘lim jarayonida kursantlarning harbiy kompetentligini yumshoq ko‘nikmalar mazmunidagi, nazariy va amaliy masalalarini yechish, kasbiy, mantiqiy va Fedbeck (teskari aloqa), keng fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish usullarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 140-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi “O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4375-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyundagi “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 369-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 267-sonli qarorlarida mamlakatimiz ofitser kadrlarini vatanparvarlik asosida tarbiyalash, yuksak intellektual salohiyat va kasbiy mahoratga ega kadrlar sifatida kamol toptirish masalasi asosiy vazifa sifatida belgilab berilgan. Ushbu yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, Mamlakatimizda O‘zbekiston Qurolli Kuchlari uchun yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash, vatanparvarlik tuyg‘usini kamol toptirish, vatanparvarlik tarbiyasi asosida, Vatanga sadoqat, muhabbat ruhida tarbiyalash, ularga qat‘iylik, jasurlik va xizmat burchini bajarishga ma‘suliyat bilan yondashish hislarini singdirish davlatimiz mudofaa siyosatining asosiy talablaridan biridir. Talab darajasida bo‘lajak ofitserlarni tarbiyalashda harbiy ta‘lim tizimi va mazmunini modernizatsiyalash, harbiy ta‘lim sohasiga ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish, “Soft Skills” yumshoq ko‘nikmalar sifatini oshirish, fan-texnika va ishlab chiqarishning yangicha talablariga mos ravishda, kursantlarga berilayotgan bilimlar mazmuniga harbiy sifatlar va zarur harbiy kasbiy kompetentlik sifatlarini, yumshoq ko‘nikmalarning asl mohiyatini chuqur singdirish, ilg‘or innovatsion yondashuvlar va milliy vatanparvarlik tarbiyasiga asoslangan davlat ta‘lim standartlarini joriy etish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik

texnologiyalarni tadbiq etish hamda bu jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda.¹

HARBIY TA'LIMDA SOFT KOMPETENSIYALARNING TUTGAN O'RNI VA UNING MUHIMLIGI

Shu o'rinda keyingi yillarda oliy harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan kursantlarni, oliygohni tamomlagandan so'ng, mudofaa vazirligi barcha qo'shin turlariga guruh komandiri lavozimiga tayinlangan davrda, boshlang'ich ofitserlik faoliyatini boshlaganda ularda mustaqil fikr yuritish, keng dunyoqarash, kundalik va jangovar harakatlarda bo'linmani muvaffaqiyatli boshqarish ularga yetakchilik qilish, aniq qaror qabul qilish kabi ko'nikmalari salbiy tomonlama xarakterlanib borayotganligi, vazirlik tizimida bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Bunday xavotir ortida pedagogika va psixologiya sohasida faoliyat yuritayotgan oliy harbiy ta'lim muassasa rahbariyati va professor-o'qituvchilari, bo'linma komandirlariga ma'lum bir topshiriqlar yuklanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida:

Bo'lajak yosh ofitserlarning psixologik va pedagogik tomonlama boshqaruvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish, ularning barqaror ijtimoiy va intellektual salohiyatini rivojlanishini ta'minlash.

Bo'lajak yosh ofitserlarning harbiy-pedagogik ta'lim jarayonida ularda mavjud bo'lgan "Hard Skills" ya'ni "qattiq" ko'nikmalari mashg'ulotlarda olgan barcha bilim, ko'nikmalarini "Soft Skills" ko'nikmalarini uyg'unlikda rivojlantirish va ularga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish.

Bu vazifalar oliy harbiy ta'lim muassasalari oldida katta mas'uliyat yuklaydi. Ana shu vazifalarni amalga oshirish maqsadida bugun oliy harbiy ta'lim muassasalari pedagoglarning oldiga juda katta vazifalar qo'yilmoqda.

Maqolaning dastlabki bosqichida biz ushbu mashhur kompetensiyaning o'ziga xos qobiliyatlari va xususiyatlari bilan qiziqdik. "Yumshoq malakalar" (Yumshoq kompetensiyalar) atamasiga murojaat qilish maqolaning boshlang'ich nuqtasi bo'lib, boshqa odamlar bilan oson muloqot o'rnatishga, turli vazifalarni samaraliroq bajarishga va yangi narsalarni tezda o'rganishga imkon beruvchi kompetensiyalar

¹ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (23.09.2020) Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1313-son.

sifatida talqin etiladi. Ingliz tilidan “Yumshoq qobiliyatlar” atamasi “moslashuvchan” yoki “yumshoq” qobiliyatlar deb tarjima qilingan. Umuman olganda, ular mutlaqo har qanday sohada foydali bo‘ladi va egasiga martaba zinapoyasini tezroq ko‘tarishga yordam beradi.²

O‘qitishning zamonaviy ko‘rinishidan kelib chiqqan holda harbiy-pedagogik ta‘lim jarayonida bo‘ljak yosh ofitserlarda yumshoq malakalar kompetensiyani jadal rivojlantirish juda muhim ahamiyat kasb etadi. “Yumshoq” ko‘nikmalarga misol sifatida harbiy faoliyat nazarida qaraydigan bo‘lsak, biz harbiy jamoada ishlash qobiliyati kabi misollarni keltirmoqchimiz.

Bulardan bo‘ljak yosh ofitserlarning kelajakdagi faoliyatida birinchi navbatda zarur ko‘nikmalar:

- muloqot strategiyangizni taqdim etish va himoya qilish;
- harbiy amaliy-ilmiy loyihalar bilan ishlash;
- yuzaga kelgan muammolarni hal qila olish ko‘nikmasi;
- harbiy jamoaga yetakchilik va boshqara olish va ko‘nikmasi;
- turli xil vaziyatlarga moslashuvchanlik ko‘nikmasi.

Harbiy faoliyat natijalarini ilmiy tilda tasvirlash qiziq. Shuni ta‘kidlash kerakki, o‘tgan davrda harbiy bilim berish, o‘nlab yillar davomida o‘zgarmagan va mutaxassislarning kasbiy fazilatlari bir ish joyida ishlagan yillar soniga qarab baholangan bo‘lsa, hozir hammasi boshqacha va zamonaviy ko‘rinishda deb aytishimiz mumkin.³

Oliy harbiy bilim yurtlarida kursantlar doimo bilim olishlari, yangi zamonaviy ta‘lim jarayoniga oid barcha narsalarni o‘rganishlari va ba‘zan notanish kasbiy sohalarni o‘zlashtirishlari kerak. Buning negizida “Qattiq” ko‘nikmalar bunday qiyinchiliklarni yengishga yordam bermaydi, shuning uchun uni o‘zgartirish dolzarb masala hisoblanadi. Ilg‘or xorij armiya olimlarining ta‘kidlashicha, insonning kasbiy muvaffaqiyatining **85 foizi** Soft ko‘nikmalari bilan belgilanadi, bu zamonaviy harbiy kadrlarni tayyorlash uchun bunday kompetentsiyalarning muhimligini va ularni rivojlantirish zarurligini isbotlaydi.⁴

² Mirziyoyev, Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik faoliyati bo‘lishi kerak. - T. “O‘zbekiston”, 2017. - 102 b.

³ O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4375-son qarori.

⁴ Герман Греф Г., Гришаков М., Мацоцкий С. “Soft Skills: гибкость, а не мягкость”.<https://www.newtonew.com.> (2017).

Shu nuqtai nazardan olib qarajak, kursantlar o'rtasida "yumshoq" ko'nikmalarni rivojlantirish zarurati masalasi dolzarb bo'lib qoladi. Muvaffaqiyatli martaba va ishonchli kelajak uchun harbiy-kasb va ofitserlik bilimlarini egallashda nafaqat kasbiy bilimlarni shakllantirish, balki yumshoq kompetensiyalarni rivojlantirish bilan shug'ullanishni taqozo etmoqda. Adabiyotlarning nazariy tahlili bo'lajak yosh ofitserlarda harbiy-pedagogik ta'lim davomida va kelgusi faoliyatida albatta foydali bo'ladigan o'nta Yumshoq kompetensiyani aniqlash imkonini beradi:

Shu asosda oliy harbiy bilim yurtlarida tahsil olayotgan bo'lajak yosh ofitserlarimizda ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rib chiqsak, bulardan:

1. Samarali va aniq muloqot kompetensiyasi;
2. Maqsadni aniq belgilash kompetensiyasi;
3. Ishbilarmonlik kompetensiyasi;
4. Emotsional intellekt kompetensiyasi;
5. Qaror qabul qilish kompetensiyasi;
6. Tanqidiy fikrlash va ijodiy fikrlash kompetensiyasi;
7. Tanqidiy fikrlash va o'z-o'zini taqdim etish kompetensiyasi;
8. Harbiy jamoa va omma oldida nutq so'zlash kompetensiyasi;
9. Vaqtni to'g'ri boshqarish kompetensiyasi.

Yuqoridagi o'tkazilgan tajribadagi tadqiqotlarning tahliliga asoslanib, harbiy faoliyat davomida bo'lajak ofitserlarda ushbu kompetensiyaning aniqroq xususiyatlari samarali muloqot ko'nikmalarini birinchi navbatda hayot davomida eng zarur ko'nikmaligini aytish joiz. Keling endi ushbu kompetensiyalarni qanday rivojlantiramiz degan savolga javob izlaymiz. Oliy harbiy bilim yurtlarida ta'lim olayotgan kursantlarimizda ularning shaxsiy muloqotida ham, onlayn muzokaralarda ham juda ham muhimdir. Kursantlar rivojlangan muloqot qobiliyatlarini qanday qo'llashlari mumkin:

- o'z nuqtai nazarini va fikrlarini aniq tushuntirish orqali;
- ishonchli tarzda muzokara bahslashmoq orqali;
- ishonchsiz, qiyin vaziyatlardan chiqish yo'lini topish orqali;
- tezda o'z sohasiga oid yaqin do'stlar orttirish orqali.

Bo'lajak yosh ofitserlarda maqsadni aniq belgilash qobiliyati muhim mahoratdir. Axir, yakuniy natijaning muvaffaqiyati 50% ga vakolatli maqsadni belgilashga bog'liq. Yana nima uchun kursant maqsadlarni belgilashni o'rganishi kerak: ular o'zlarida



diqqat markazini aniqlash; ustuvorlikni belgilash osonroq; tezroq oldinga siljish; vaqtni boshqarish qobiliyatlari orqali maqsadlarni aniq belgilash kompetentsiyalarni oshirishimiz mumkin.⁵

O‘z kasbiy sohasining ustasi ishbilarmonlik, o‘z fikrlarini og‘zaki yoki yozma ravishda bayon etish ko‘nikmalari, bu ko‘nikmalar ayniqsa, harbiy aloqa masofaviy formatga o‘tayotgan paytda juda muhimdir. Ular bo‘lajak yosh ofitserlarga quyidagi kompetentsiyalarni rivojlantirishga imkon beradi: o‘z fikrni yozma ravishda aniq ifodalash; ishbilarmonlik odob-axloq qoidalarining nozik tomonlarini tushunish; suhbatdoshini tezroq tushunish; tezislar va dalillarni nafaqat xatlarda, balki shaxsiy tarkib bilan ishlash davomida ham aniq shakllantirish.⁶

Harbiy sohada uzluksiz ta‘lim-kelajakdagi harbiy ta‘limining eng muhim tendentsiyalaridan biri. Kursant harbiy bilim yurtini tamomlab diplom olib, navbatdagi yangi xizmat joyiga joylashsa ham, uning o‘qishi va o‘z ustida ishlashi tugamaydi, chunki bu umr bo‘yi cheksiz jarayon. Kursantlar ushbu jarayonni qanchalik tez tushunsalar, ular uchun kerakli ko‘nikmalarni rivojlantirish va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini saqlab qolish osonroq bo‘ladi.

Bo‘lajak ofitserlarda ushbu turdagi aqlni rivojlantirish orqali kursant tezda shaxsiy tarkib bilan umumiy til topadi, o‘zini yaxshiroq tushunadi va hayotga ko‘proq muvaffaqiyat keltiradi.

Harbiy faoliyat davomida to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati, harbiy ish nazariyasida o‘z sohangizda istalgan vaqtda sizga yordam beradigan qobiliyatdir. Agar kursant uni ta‘lim jarayonida mukammal o‘zlashtirsa, u: hodisalarni rivojlantirishning turli variantlarini tezda o‘qiy oladi va quyidagi amallarni tavsiya o‘rnida aytib o‘tamiz:

Avvalo, tavakkal qilishdan hech qachon qo‘rqmang, ko‘zlangan maqsaddan chetga chiqmang, sohaga oid barcha qiyinchiliklarni enging, o‘tkazib yuborilgan imkoniyatlar uchun pushaymonlik bilan o‘zingizni qoralamang, hayotingiz uchun mas‘uliyatni o‘z zimmangizga oling, masalalarni hal qilishga ongli yondashing. Mana shunda siz o‘z sohangizda ulkan zafarlar va yutuqlar sohibiga aylanasiz.⁷

Bu mahorat va kompetensiyalar, yosh ofitserlarning ilk harbiy faoliyati davomida va muhim qadamlar qo‘yish vaqti kelganida juda foydali bo‘ladi. Doimo bo‘lajak ofitser

⁵ Daniel Goleman. “Emotsional intellekt: nima uchun u hayotimizdagi eng muhim ko‘nikma”. Emotsional intellekt haqidagi klassik asar.

⁶ Stephen Covey. “7 ta odatli muvaffaqiyatli odamlar” Shaxsiy va professional rivojlanish uchun muhim tamoyillarni bayon qiladigan asar.

⁷ Волкова М. Э. Педагогик ixtisoslik talabalarida yumshoq ko‘nikmalarni shakllantirish: nazariy tahlil 2017.

ijodiy fikrlashdan to'xtamasligi muhim, chunki, bu oddiy narsalarda g'ayrioddiy narsalarni ko'rish va yangi g'oyalarni o'ylab topish qobiliyati rivojlanib boradi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish joizki, XX-asrning o'rtalarida o'qitish tizimining texnik va texnologik o'zgarishlarning ortib borayotgan tezligi, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar va harbiy ta'limda bilimlarning yangilanishi rivojlanish, o'zgarish va malaka oshirish nuqtai nazaridan oliy harbiy ta'lim muassasa professor va o'qituvchilar tarkibiga qo'yiladigan talablarni o'zgartirdi. Endi "tor" ixtisoslashuv mehnat bozori talablarining o'zgarishiga javob berish qobiliyatiga ega emas, balki hozirgi vaqtda global vaziyatdagi, global o'zgarishlar, zamonaviy taktik harakatlarning o'zgarib borish teatri va uning istiqboli sizni, bizdan malaka talablarini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda.

Shu asosda oliy harbiy bilim yurtlari ta'limi tizimida yangi tendentsiyalarni keltirib chiqarmoqda. Oliy harbiy ta'lim tizimida bo'lajak yosh ofitserlarni har tomonlama yetuk, o'z kasbining mohir ustasi va professional qilib tayyorlashda o'qitishning zamonaviy modelini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Oliy harbiy ta'limini 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasini chuquroq tahlil qilsak, harbiy-pedagogik ta'lim jarayonida, bo'lg'usi ofitserlarni tayyorlashda ulardagi yangi kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu kompetensiyalarni oshirishimizda nafaqat texnologiya bilan bog'liq bo'lgan professional kompetensiyalarga, balki yumshoq ko'nikmalarga alohida e'tibor berish talab qilinadi. Zero bu ko'nikmalar bilan bizlar yosh ofitserlarimizni harbiy faoliyatida oz miqdorda bo'lsa ham muvaffaqiyatga erishishiga hissa qo'shsak, oldimizga qo'ygan asosiy maqsadimizga erishgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (23.09.2020) Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1313-son.
2. Mirziyoyev, Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik faoliyati bo'lishi kerak. - T. "O'zbekiston", 2017. - 102 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4375-son qarori.
4. Герман Греф Г., Гришаков М., Мацоцкий С. "Soft Skills: гибкость, а не мягкость".[https:// www.newtonew.com](https://www.newtonew.com). (2017).

5. Daniel Goleman. “Emotsional intellekt: nima uchun u hayotimizdagi eng muhim ko‘nikma”. Emotsional intellekt haqidagi klassik asar.
6. Stephen Covey. “7 ta odatli muvaffaqiyatli odamlar” Shaxsiy va professional rivojlanish uchun muhim tamoyillarni bayon qiladigan asar.
7. Волкова М. Э. Педагогик ixtisoslik talabalarida yumshoq ko'nikmalarni shakllantirish: nazariy tahlil 2017.
8. Давидова В. Tinglash, gapirish va muzokaralar olib borish: yumshoq ko'nikmalar nima va ularni rivojlantirish Elektron <http://theoryandpractice.ru/posts/soft-skills>.
9. Карпов А. В. Faoliyatning kasbiy muhim sifatlari tushunchasi.
10. Поваренков Ю. П. Shaxsning kasbiy rivojlanishi psixologiyasi muammolari/ Yu. P. Povarenkov.